

**Psychological features of interest in English in improving students'
intellectual and creative abilities**

Navoi State University Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Haydarova Nozigul Bahrom qizi

Zarafshan City Technical School No. 2 Teacher of English

Abstract. This article discusses the psychological aspects of teenagers' interest in English in improving their intellectual and creative abilities.

Keywords. Thinking, intellectual, creativity, psychological, abilities, research, education, scientific, theoretical, affective, integrative

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`smirlarning intellektual va ijodiy qobiliyatni takomillashtirishda ingliz tiliga qiziqtirishning psixologik jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so`zlar. Tafakkur, intellektual, ijod, psixologik, qobiliyat, tadqiqot, ta`lim, ilmiy, nazariy, ta`sirchanlik, integrativ

Yoshlarga kasb o`rgatish va uni egallashi jamiyatning taraqqiyoti uchun o`zhissasini qo`shib yashashi hamda bu orqali jamiyatda o`z o`rnini egallashi, ya`ni shaxsning kamol topishi ustuvor mezon sifatida muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda uzluksiz ta`lim tizimi jarayonida har tomonlama barkamol va ijodkor yoshlarni tarbiyalash masalasi ta`lim tizimining barcha bosqichlarida pedagogik tizimning o`zaro muvofiqligi hamda istiqbolga yo`naltirilganligini ta`minlash yuzasidan keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ijod - bu subektning tafakkuri, aqli va idroki nazorat qiluvchi, tartibga soluvchi, yo`naltiruvchi, shu bilan birga ijtimoiy amaliyotga muvofiq ravishda muttasil o`zgarib boruvchi obektiv olamning subekt ongidagi faol in'ikosidir.

O`quvchilarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi hammaga sir emas. Yoshlarning intellektual salohiyati ularning ilmiy-tadqiqot faoliyati natijasi bo'lib, ijodiy qobiliyatlarni, ta'lim va kasbiy tayyorgarlikni, yangiliklarni o`zida mujassam qiladi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar bo'yicha ilmiy metodik tavsiyalarni keltirishdan oldin ushbu texnologiyalarning nazariy ma'lumotlarni keltirib o'tish lozim. Ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar nafaqat ta'lim mazmunini rivojlantirish, balki o`quvchilarni intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday zamonaviy ta'lim texnologiyasi uzluksiz ta'lim tizimining qaysi bosqichida qo'llanilishidan qat'iy nazar, uning markazida o`quvchi va uning qiziqishlari, ehtiyojlari ko'zda tutilishi zarur. Shuningdek, intellektual va ijodiy qobiliyatni takomillashtiruvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalari tizimlashtirildi.

Intellektual qobiliyat - bu shaxsning ta'sirchanligi, predmetni idrok qilishining kuchliligi, obyekt to'g'risida ko'p ma'lumotlarga ega bo'lishdir. Shuningdek, shaxsdagi intellectual qobiliyat o'rganilayotgan obyektни tahlil qilish, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o'zining shaxsiy fikriga ega bo'lish bilan namoyon bo'ladi.

O'quvchilarda intellektual va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ta'limning amaliy va nazariy shakllarini innovatsion didaktik hamda pedagogik metodlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bu esa intellektual va ijodiy qobiliyatga ega shaxsni shakllantirishga asos bo'ladi.

O'rganuvchilarning, ayniqsa, intellektual-ijodiy qobiliyatlar sohasida kreativini shakllantirish hamda uni rivojlantirishning ilmiy asoslangan – tizimi, mazmuni, shakllari, texnologiyalari, metodlari, usullari, uslublari va vositalari zarur.

Yosh avlodning intellektual salohiyatli oshirish, ijodiy fikrlashga undovchi jarayonlar va imkoniyatlarni ta'lim amaliyotida keng qo'llashda integrativ yondashuvlar asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida. PF-60-son.28.01.2022// <https://lex.uz/docs/5841063>
- 2.Rahimov B.X. Yoshlarni ilmiy ijodiy faoliyatga yo'naltirish asoslari. - Toshkent: Fan, 2010. - 128 b.
- 3.Safarova R. O'quvchilarning bilim sifatini oshirish // Xalq ta'limi. 2005. №1. -B.14-19.